

STUDY OF REHABILITATION INSTITUTIONS IN CRIMINAL PROCEDURES OF FOREIGN COUNTRIES

Isanova Dilnoza Mavlakhonovna

Namangan regional legal technical school,
Head of Monitoring and Internal Control Department.

Kurbanov Ravshan Raimjonovich

Namangan regional legal technical school,
Youth Department Designer

Annotation: The article describes the study of rehabilitation institutions in foreign criminal proceedings and this study

Keywords: Rule of law, criminal liability, rehabilitation, improvement, criminal procedure.

XORIJIY MAMLAKATLAR JINOYAT PROTSESSIDA REABILITATSIYA INSTITUTILARINI O'RGANISH

Isanova Dilnoza Mavlaxonovna

Namangan vilyati yuridik texnikomi,
Monitoring va ichki nazorat bo'limi boshlig'i.

Kurbanov Ravshan Raimjonovich

Namangan vilyati yuridik texnikomi,
Yoshlar bilan ishlash bo'limi uslubchisi

Annotatsiya: Maqolada xorijiy mamlakatlar jinoyat protsessida reabilitatsiya institutlarini o'rganish hamda ushbu o'rganish yoritilgan

Kalitli so'zlar: huquqiy davlat, jinoiy javobgarlik, reabilitatsiya, takomillashtirish, jinoyat-protsessual.

Har qanday huquqiy davlat uchun asosiy vazifalardan biri jinoyat sodir etgan shaxslarni adolatli jazolashdan iboratdir. Shu bilan birga aybsiz odamning nafaqat sudga berilish holatlari ko'p uchrab kelmoqda, balki jinoiy javobgarlikka tortilmasligini ta'minlash ham. Lekin, afsuski, tergov va sud organlari faoliyatida xatolar uchrab turishi ta'biy xol. Shu xatolarni tuzatish maqsadida reabilitatsiya instituti paydo bo'lgan.

Reabilitatsiya instituti davrlar o'tgan sari rivojlanib, mukammallashib bormoqda. Mazkur soha bo'yicha xorij tajribasini o'rganish mamlakat qonunchiligini takomillashtirish uchun foydali xisoblanadi. Ammo bu holatda O'zbekiston qonunchiligi va har qanday davlat qonunchiligining rivojlanish xususiyatlarini hisobga olish kerak bo'ladi. Aks holda kiritilgan o'zgartirishlar milliy qonunchilikda kutilgan natijani bermasligi yoki ko'rib chiqilayotgan huquqiy munosabatlar sohasiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Reabilitatsiya instituti konstitutsiyaviy darajada, kodekslar yoki maxsus qonunlarda mustahkamlangan davlatlar tajribasini o'rganish maqsadga muvofiq xisoblanadi. Chunki O'zbekistonda ham reabilitatsiya Jinoyat-protsessual kodeksida o'z aksini topgan.

Zararni qoplash va fuqarolarning huquqlarini himoya qilish tamoyillari ko'plab davlatlarda konstitutsiyaviy darajada mustahkamlangan. Bu davlatlarga Yaponiya, Shveysariya, Ruminiya, Polsha, Portugaliya, Koreya Respublikasi, Xitoy, Ispaniya, Italiya, Germaniya, Gretsiya, Vetnam, Vengriya, Braziliya, Bolgariya, Avstriya, Albaniya, Ozarbayjon, Jazoir kiradi. Anna Yashina o'zining monografiyasida

ushbu mamlakatlar oddiy qonunchilik darajasida ekanligiga qaramasdan, yuqoridagi tamoyillarda o'z qonunchiligida mukammal aks ettirgan va takomillashtirib bormoqda deb ta'kidlaydi.[1]

Albaniya, Vetnam, Gvatemala va Honduras davlatlarida etkazilgan zararni qoplash printsiplari, shuningdek, fuqaroning reabilitatsiya qilinish huquqi konstitutsiyaviy darajada belgilangan.[2] Albatta, reabilitatsiya institutini konstitutsiyaviy darajada mustahkamlash juda to'g'ri, chunki bu insonning buzilgan huquqlarini tiklashdan iborat xisoblanadi.

MDHga a'zo aksariyat davlatlarning jinoyat-protsessual kodekslarida reabilitatsiya qilingan fuqarolarga etkazilgan zararni qoplash to'g'risidagi qonunlar mavjud. Lekin Ukraina bundan istisno hisoblanib, Ukrainada 1994 yil 1 dekabrda «Tergov, dastlabki tergov, prokuratura va sudning noqonuniy xatti-harakatlari bilan fuqaroga etkazilgan zararni qoplash tartibi to'g'risida»gi maxsus qonun qabul qilingan. Ukraina Jinoyat-protsessual kodeksiga reabilitatsiya normalari kiritilmagan xisoblanadi.

Armanistonning Jinoyat-protsessual kodeksida reabilitatsiyaga atalgan alohida bob yo'q. Biroq ushbu kodeksning 22-moddasi «sud xatolaridan jabrlangan shaxslar huquqlarini tiklash» deb belgilangan. Unda oqlangan shaxsning huquqlarini tiklash va unga etkazilgan zararni qoplash qayd etilgan. Mazkur modda tergov organlariga fuqarolarning buzilgan huquqlarini tiklash bo'yicha choralar ko'rish majburiyatini yuklaydi. Bundan tashqari, kodeksning 66-moddasida oqlangan shaxs tushunchasi va uning huquqlari belgilangan.

Belarus Jinoyat-protsessual kodeksining 7-moddasida reabilitatsiya, etkazilgan zararni to'liq qoplash, shuningdek, noqonuniy jinoiy taqib qilish natijasida buzilgan huquqlarni tiklash jinoyat protsessining vazifalaridan biri etib belgilangan. Biroq reabilitatsiya qilish tartibi kodeksda belgilanmagan. Kodeksning 465-moddasiga ko'ra jinoyat protsessini olib borgan va etkazilgan zararni qoplashga ma'sul organ ushbu fuqarodan rasmiy uzr so'raydi. Ushbu kodeksning 48-bobi «Jinoyat protsessini olib boruvchi organning noqonuniy xatti-harakati oqibatida etkazilgan zararni qoplash to'g'risidagi ishlar» deb nomlangan. Unda jismoniy, ma'naviy va mulkiy zarar tushunchalari, shuningdek, shaxsning mehnat, pensiya, uy-joy va boshqa shaxsiy nomulkiy huquqlarini buzish tushunchalari ochib berilgan. Unda etkazilgan zarar uchun tovon puli talab qilish huquqi berilgan shaxslar ro'yxati keltirilgan.

Vengriya konstitutsiyasining 18-moddasida shaxs ma'lum muddat ichida xolis va adolatli sud qilinishi kafolati belgilangan. Hokimiyat sud hukmlarining sabablarini oshkor qilishga majbur. Har bir fukaro hokimiyat organlari o'z vazifalarini bajarishda unga nisbatan etkazgan noqonuniy zarar uchun tovon puli talab qilishga haqli. Xuddi shunga o'xshash norma O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ham o'z aksini topgan.

Albaniya konstitutsiyasida reabilitatsiya qilish va zararni qoplash huquqlari mavjud. Konstitutsiyaning 44-moddasida «har kim davlat organlarining noqonuniy harakati yoki harakatsizligi tufayli zarar ko'rgan bo'lsa, qonunga muvofiq reabilitatsiya qilinish yoki ozod qilinish huquqiga ega» deyilgan. Albaniya jinoyat-protsessual kodeksining 9-moddasida qonunga xilof ravishda javobgarlikka tortilgan shaxslar uchun zararni qoplash va huquqlarni tiklash huquqi belgilangan.[3]

Polsha konstitutsiyasiga reabilitatsiya tushunchasi kiritilmagan. Lekin konstitutsiya shaxsga davlat hokimiyati organlarining noqonuniy xatti-harakatlari natijasida etkazilgan zararni qoplash uchun tovon puli to'lanishini kafolatlaydi. Konstitutsiyaning 41-moddasida ozodlikdan noqonuniy mahrum etilgan shaxslar uchun etkazilgan zararni qoplash huquqi mustahkamlangan. Konstitutsiyaning 77-moddasiga «hech kimga buzilgan huquq va erkinliklarini sud yo'li bilan tiklashga to'sqinlik qiluvchi qonuniy cheklov qo'yilishi mumkin emas» degan norma kiritilgan.[4]

Yuqoridagi ikki davlatdagiga o'xshash norma O'zbekiston Konstitutsiyasida ham o'z aksini topgan. Biroq davlat organlarining shaxsga noqonuniy etkazgan zararini qoplash uchun tovon puli to'lash normasi mavjud emas.

Zarar etkazgan davlat organining faoliyati keng ma'noda har qanday harakat yoki harakatsizlik, alohida chora-tadbirlar, farmoyishlar, sud qarorlari, ma'muriy qarorlar, me'yoriy hujjatlar va qonunchilik faoliyati sifatida talqin qilinishi muhim ahamiyatga ega.[5]

Qozog'iston konstitutsiyasida reabilitatsiya va zararni qoplash to'g'risidagi qoidalar nazarda tutilmagan. Biroq Qozog'iston Jinoyat-protsessual kodeksining 4-bobi reabilitatsiyaga bag'ishlangan. U «Reabilitatsiya. Jinoyat protsessini yurituvchi organning noqonuniy harakatlari oqibatida etkazilgan zararni

qoplash» deb nomlanadi. Kodeksning moddalarida qisman va to'liq reabilitatsiya tushunchasi ochib berilgan. Reabilitatsiya qilinish huquqiga ega bo'lgan shaxslar doirasi ma'lum qilingan, shuningdek, etkazilgan zararni qoplash tartibi belgilangan va mulkiy zarar mazmuni ochib berilgan.

Turkmaniston Jinoyat-protsessual kodeksining 38-moddasida shaxsni to'liq va qisman reabilitatsiya qilish belgilangan. Turkmaniston konstitutsiyasining 41-moddasida jismoniy shaxslarga davlat organlari, tashkilotlar va jismoniy shaxslar noqonuniy etkazgan moddiy va ma'naviy zararni sud orqali qoplash nazarda tutilgan. Jinoyat-protsessual kodeksida ham 4-bob «Jinoyat ishini yuritish organining noqonuniy harakatlari tufayli etkazilgan zararni qoplash»ga qaratilgan.

1992 yil 15 aprelda qabul qilingan Vetnam konstitutsiyasi fuqaroga reabilitatsiya qilinish va davlatdan tovon olish huquqini beradi. Konstitutsiyaning 72-moddasida «g'ayriqonuniy ravishda ushlangan, hibsga olingan, javobgarlikka tortilgan va qonunga xilof ravishda aybdor deb topilgan shaxslar kompensatsiya olish va reabilitatsiya qilinish huquqiga egadirlar» deyilgan.[7] Ushbu qoida jinoiy va ma'muriy ish yuritishda shaxsni reabilitatsiya qilish imkonini beradi.

Gvatemala va Hondurasda reabilitatsiya konstitutsiya darajasida tartibga solingan. 1956 yilgi Gvatemala konstitutsiyasining 20-moddasida shaxsning fuqarolik huquqlarini tiklash yo'llaridan biri sifatida reabilitatsiya belgilangan.

1936 yil 28 martda tasdiqlangan Honduras konstitutsiyasining 26-moddasida fuqaro qonunga muvofiq reabilitatsiya qilingan taqdirda huquqlari tiklanishini ta'minlash belgilangan. Shuni ta'kidlash kerakki, Gvatemalada ham, Hondurasda ham reabilitatsiyaga ozodlikdan mahrum qilish jazosini o'tagan shaxslarni qayta ijtimoiylashtirish tartibi sifatida qaraladi.

Yuqoridagilardan xulosa qilish mumkinki, ayrim xorijiy davlatlarning konstitutsiyaviy qonunchiligi huquqiy munosabatlar sub'ektlariga etkazilgan zarar uchun davlat hokimiyati organlarining javobgarligi nuqtai nazaridan takomillashtirilgan. Birinchi davlat organlari va mansabdor shaxslarning noqonuniy harakatlari uchun javobgarlikka tortish imkoniyati yo'q edi. Xozirgi kunda xorijiy davlatlar qonunchiligida davlat organlari va mansabdor shaxslar noqonuniy etkazgan zararni davlat xisobidan qoplashning aniq tendentsiyasi kuzatilayapti. Yuqorida keltirilga xorijiy davlatlarni qonunchiligini o'rgangan xolda o'zimiz uchun kerakli mentalitetimizdan kelgan xolda o'zimiz uchun kerakligini olishimiz maqsadga muvofiq bed o'ylayman.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Яшина А.А. Конституционно-правовые основы реабилитации в Российской Федерации: дисс. канд. юрид. наук: 12.00.02 / А.А. Яшина. — Пенза, 2016. — 233 с.
2. Правовые системы стран мира. Энциклопедический справочник / под ред. А.Я. Сухарева. — М. : НОРМА, 2003. — 976 с.
3. А.А. Бученков «Институт реабилитации в уголовном процессе зарубежных стран». Электронный научный журнал «Наука. Общество. Государство», 2018. Т. 6, № 2 (22) <http://esj.pnzgu.ru> ISSN 2307-9525.
4. А.А. Бученков «Институт реабилитации в уголовном процессе зарубежных стран». Электронный научный журнал «Наука. Общество. Государство» 2018. Т. 6, № 2 (22) <http://esj.pnzgu.ru> ISSN 2307-9525.
5. Дело «Брониовский (Broniowski) против Польши» (жалоба № 31443/96): постановление ЕСПЧ от 22.06.2004 / Правовой Сервер Консультант Плюс [Электронный ресурс].—Режим доступа: <http://www.consultant.ru/cons/cgi/online.cgi?req=doc&base=ARB002&n=669#04202005255900574> / (дата обращения: 09.04.2018).
6. Конституции государств (стран) мира /Интернет-библиотека конституций Романа Пашкова [Электронный ресурс]. — Режим доступа: [https:// worldconstitutions.ru/?cat=27/](https://worldconstitutions.ru/?cat=27/) (дата обращения: 05.04.2018).
7. Jeffrey Lehman, Shirelle Phelps. West's Encyclopedia of American Law. Detroit: Thomson/Gale, 2005, 7000 p.
8. Камолов, А. А., & Холмирзаев, У. А. (2016). Малый бизнес и частное предпринимательство в Узбекистане. Вопросы экономики и управления, (5), 182-184.

9. Xolmirzaev, U. A. (2020). FINANCIAL ASSETS AND IMPROVEMENTS OF THEIR ANALYSIS. Экономика и социум, (1), 102-105.
10. Xolmirzaev, U. A., & Juraev, E. S. (2020). PROBLEMS OF IMPROVEMENT OF DEBTOR DEBT ANALYSIS. Мировая наука, (1), 100-105.
11. Juraev, E. S., & Xolmirzayev, U. A. (2020). SUPPORTING SMALL BUSINESS SUBJECTS BY TAX REFORMS. Экономика и социум, (1), 48-52.
12. Hakimov, B., Yunusov, M., & Holmirzayev, U. (2019). ELABORATION OF THE BALANCE SHEET LIQUIDITY ANALYSIS-REQUIREMENTS OF THE PERIOD. International Finance and Accounting, 2018(1), 100.
13. Kamolov, A. A., & Xolmirzayev, U. A. (2018). ECONOMIC LAWS AND CATEGORIES. Экономика и социум, (2), 34-36.
14. Убайдуллаев, Т., & Холмирзаев, У. (2019). ФАКТОРЫ И ТЕНДЕНЦИИ ЭКОНОМИЧЕСКОГО РОСТА. Мировая наука, (1), 299-302.
15. Ўқитувчи, Х. У. А. . (2021). ҚИСКА МУДДАТЛИ ҚИММАТЛИ ҚОҒОЗЛАРНИ АНАЛИТИК ҲИСОБИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ. "ONLINE - CONFERENCES" PLATFORM, 396–399. Retrieved from <http://papers.online-conferences.com/index.php/titfl/article/view/473>
16. Ibrogimov Sherzodbek Halimjon ogli, "DIGITAL ECONOMY AND FACTORS OF ITS DEVELOPMENT IN THE CONDITIONS OF PANDEMIC IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN", IEJRD - International Multidisciplinary Journal, vol. 6, no. 5, p. 5, Nov. 2021.
17. Ibrogimov Sherzodbek Halimjon Ogli, Obbasov Ilyosbek Abdulhamid Oglu."Peculiarities of the Development of Industrial Production in Namangan Region", Volume 9, Issue XI, International Journal for Research in Applied Science and Engineering Technology (IJRASET) Page No: 544-547, ISSN : 2321-9653
18. Ubaydullaev Toxirjon Abdullajanovich, & Ibrogimov Sherzodbek Halimjon ogli. (2021). ОПРЕДЕЛЕННЫ ОСНОВНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ ДИВЕРСИФИКАЦИИ ЭКСПОРТА ПРОМЫШЛЕННОЙ ПРОДУКЦИИ НА ОСНОВЕ ЛОКАЛИЗАЦИИ. Международный междисциплинарный исследовательский журнал Galaxy, 9(12),70-75.